

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA

O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI» FAKULTETI

**“YENGIL SANOAT MAHSULOTLARINI
KONSTRUKTSIYALASH VA TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI**

“KOSTYUM DIZAYNI” FANIDAN

Laboratoriya ishlarini bajarish uchun

**O'quv uslubiy
qo'llanma**

NAMANGAN-2018

Ushbu "Kostyum dizayni" fanidan tayyorlangan uslubiy ko`rsatma 5A320902-Tikuv buyumlari texnologiyasi va konstruksiyasini ishlash mutaxassisligi talabalari uchun mo`ljallangan.

TUZUVChI:

t.f.d., Q.M.Xoliqov

TAQRIZChILAR:

V.Umarova – Namangan muhandislik texnologiya
instituti katta o`qituvchisi

D.Aliyeva – Namangan muhandislik texnologiya
instituti dotsenti

Uslubiy ko`rsatma NamMTI "Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi"
kafedrasining 201 yil __ avgustdagi 1- sonli yig'ilishida muhokama qilingan va ma`qullangan.

Uslubiy ko`rsatma institut Ilmiy - uslubiy kengashining 201 yil «__» _____
__- sonli yig'ilishida muhokama qilinib tasdiqlangan va chop etishga tavsiya qilingan.

Amaliy mashg`ulot №1

MAVZU: Turli geometrik shakllaridan kombinatorika usulini qo'llab libos shaklini yaratish (bir shaklga asoslanib, kontrast, nyuans, o'xshashlik shakllar juftligini qo'llab, shaklda ma'lum funksiyani bajarib, shakl detallarini emotsional xolatini ifodalab).

Ishning maqsadi: Tikuvchilikda keng foydalaniladigan geometrik figuralardan foydalanib turli kiyimlarni shakllarini yaraish.

Ishning mazmuni:

1. Geometrik shaklni o'rganishi.
2. Libos shaklini yaratishni o'rni

Kerakli jihozlar:


moda jurnali, lineyka, kalka, qalam, maketlik material, gazeta bo'laklari, rangli qog'oz, akvarel, rangli qalamlar, va oddiy qalam.

Ishni bajarish tartibi

Har bir talabaga ishni bajarish uchun dizaynda badiiy ijod qilishni o'rganadi va ularga asoslanib kostyum shaklini yaratadi.

Shakl tushunchasini mohiyati quyidagi xossalalar bo'yicha taxlil etish mumkin: shakl-falsafa kategoriyasi; shakl-timsol; shakl-buyum; shakl-faoliyat.

Shakl tushunchasi insonning dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq, demak shakl o'tmishi va kelajak bilan taqqoslab taxlil etish lozim. Shakl ma'lum psixologik ma'noni ifodalaydi va muayyan obrazli mazmunni ifodalaydigan belgi, ramz tizimi deyiladi. Kostyumdagi shakl-bu kostyum elementlari (kiyim, bosh va oyoq kiyim) morfologik va plastik aloqa tizimi kostyum shakli odob bilan chambarchas bog'lik va faqat uning siymosi, razmeri, xarakterini olgan xolda taxlil etilishi lozim.



Bir necha funktsiyani bajaradigan buyum ko'pfunktsiyali deyiladi. XX asrda ko'pfunktsiyali buyumlarni loiyihalash dizaynda muhim tendentsiyalardan biri buldi. 1920 yildayoq funktsionistlar ko'p an'anaviy buyumlarni o'rniga ishlatish mumkin bo'lgan universal buyumlarni yaratishga intilishgan edi. Bu yo'nalish universal uslub yaratishga urinishlar bilan bog'liq edi, u ilmiy asoslangan, uyg'un va ma'qul bo'lgan holda, odamlarning yoshi, madaniy saviyasi, shaxsiy didi va b. qat'iy nazar istemolchining maishiy va estetik ehtiyojlarini bajara oldi. Rus konstrktorlari mehnatkashlar uchun funktsionalligi va universalligi bilan barcha boshqa kiyimlarning o'rnini bosadigan "yangi forma kiyimi"ni loiyihalashdi.

Zamonaviy insonning ehtiyojlarini shunday loiyihalash usuli qondiradi, chunki bu kiyimlar ularning turmush tarziga mos bo'lib, manbani tejashga imkon beradi. Dizaynerlar yaratgan universal kiyimlarga 1920 yildagi "Shanel uslubidagi kostyumni", Iv Sen Loranning ko'ylak-smokingini, djinslarini kiritish mumkin. K.Shanel "kichkina qora ko'ylak"ni erkaklar kostyumning analogi sifatida taqdim etgan, chunki shaklning oddiyligi va qora rangning universalligi, qo'laylikni modada va konkret vaziyatda beqiyos qiladi: har xil bezaklar va asksessuarlar yordamida uni kundalik yoki bashang qilish mumkin. "Shanel uslubidagi" kostyumni ham har xil vaziyatlarga kiyish mumkin. Djinslar ham ko'pfunktsional buyumga aylandi – ilk bor ishchi kiyim sifatida, keyinchalik kundalik va so'ng bashang kiyimga o'zlashtirlidi. Zamonaviy djinslar ana'naviy djins (kuk rangli denim) gazlamasidan tikilmasdan, balki yangi tarkibli, fakturali, tolali gazlamalardan ham tayyorlanadi.

Ko'pfunksiyali buyumlarni yaratishga minimalizm (zamonaviy dizaynda yetakchi yo'nalishlaridan biri) tarafdorlari intiladi. Kostyum dizaynida minimalizm – bu minimal sonli ko'pfunksional buyumlardan iborat garderoib kotseptsiyasidir. Minimalistlar (masalan, amerikalik dizayner K.Klyan, D.Keran, nemis dizayneri Dj.Sander) fikri bo'yicha universal buyum quydagi xossalarga ega bo'lishi kerak: shaklni oddiyligi, bezakning yo'qligi, neytral rangli, gazlamalarning yuqori sifatligi. Kostyum doimo yangi assortiment turlari va yangi buyumlar bilan boyiydi. Odatda, bu boshqa kundalik kiyimlaridan elementlarni o'zlashtirilganda ro'y beradi. Zamonaviy garderoibda harbiy formadan, sport kiyimidan o'zlashtirilgan kiyim turlari mavjud. Doimo o'zgaradigan turmush tarzi va hayot ritmiga moslanib va bizning kiyimimizni boyitib bu jarayon tugamaydi.

Maishiy kostyumga doimo harbiy forma ta'sir ko'rsatadi. Salb yurishlari davridan boshlab, to o'rta asr ritsarlarning jang va musobaqa uchun mo'ljallangan kiyimlari ham maishiy kostyumning yangi turlari bilan to'ldiriladi. XIV asrda erkaklarning oldi ochiq kiyimi - baskali kurtka (purpuren) paydo buldi, uni ilgari ritsarlar metall sovut tagidan kiyishgan. XVII asrda mushketer plashchilari va poshnali etiklar modaga kiritildi. Birinchi jahon urshi davrida ayollar maishiy kiyimga "qoplama" chuntaklar, aktsentlangan taqilmalar, "matros" yoqalari va "aviatorlarning tik yoqalari" o'tgan. 1970 yy. modaga harbiylashgan uslub - "militari look" – xaki rangi, pogonlar, xlyastiklar, pilotkalar va harbiy planshetkaga o'xshash sumkalarni kiritdi. 1990 yy. modaga harbiylar kiyimi uchun materiallar va botinkalar kirdi.

Kiyim assortimenti boshqa jins kiyimidan o'zlashtirilgan bilan ham to'ldirildi. XIX-XX asr ayollar kostyumi erkaklar kostyumining elementlari bilan to'ldirildi. Bu hol ayollarning emansipatsiyasi va jamiyatda o'rnini va ijtimoiy holi o'zgarishi bilan bog'liqdir. Ayollar garderoibida klassik ingliz kostyumi, shimlar, nimcha, shortlar va b. paydo buldi. Erkaklar kostyumida esa ayollar kostyumining elementlari kirdi, u turli yorqin rangli va naqshli ichki va ustki kiyimlar, taqinchoqlar, soch turmaklar.

Ba`zan buyumning mo`ljali o`zgarganida yangi assortiment turlari uning funktsional transformatsiyasida paydo bo`ladi. Masalan smoking ko`ylakka aylanishi mumkin (Iv Sen Loranning ko`ylak-smokingi), erkaklar ko`ylagi ayollar ko`ylagi yoki jaketgiga, mayka – ko`ylakka.

Kostyumning yangi turlarini paydo bo`lishiga har xil xalqlarning an`anaviy kostyumlari doimo manba bo`lgan. Sharqdan yevropaga yangi kiyim elementlari kirdi.

Amaliy mashg`ulot №2

MAVZU: Maket va asosiy materiallarini plastik xossalarini inobatga olgan holda, turli metodlarni (modul, dekonstruksiya va x k.) qo`llab, libos modellarinn yaratish.o`rganish

Ishdan maqsad: Talabalarda kiyim modellashtirishda to`qimachilik ornamenti turlari bo`yicha amaliy ko`nikmalar hosil qilish.

Ishning mazmuni:

1. Noan`anaviy amaliy bezak san`atining xususiyatlarini o`rganish.
2. Amaliy bezak san`ati sinflanishini o`rganish.
3. Amaliy bezak san`at sohasi usullari bilan tanishish.

Kerakli jihozlar:

A3 formatidagi qog`oz, rangli va qora qalamlar, qaychi, gazlama mato namunalari, tikuvchilik bo`rlari, sm lenta, to`g`nag`ichlar, maneken, moda jurnallari, model eskizlari.

Ishni bajarish tartibi

Dizayn buyumlarini ishlab chiqishda modul loyihalash usuli — standartizatsiya sohasida eng samarali faoliyat hisoblanadi. Bu usul buyumning tarkibiy elementlarini unifikatsiyalashga muhtojlik tug`diradi. Unifikatsiya`ning asosiy prinsipi shundaki, unifikatsiyalashgan elementlardan (modullar) minimal foydalanganda har xil dizayn buyumlarini hosil qilish mumkin. Modulga oid loyihalash konstruktiv, texnologik va funktsional tugallanganlikni bildiradi.

Modul — me`yor o`lchovi. Avval odam tanasining ayrim qismlari ma`lum me`yor o`lchovi asosida bo`lgan, ya`ni dyuym — katta barmoq bo`g`imining uzunligi, yard —

ikki tomonga surilgan katta va ko'rsatkich barmoqlar orasidagi masofa, fut — odam oyoq kaftining o'rtacha uzunligini bildirgan. Masalan, Angliya o'rta asr me'morchiligida fut, Italiyada kvadrat va to'g'riburchak modul bo'lgan. Me'morchilikda moduldan foydalanish yaxlit va uning qismlari uyg'unligiga erishish uchun badiiy vosita vazifasini bajargan.



1-rasm. Buyumning tarkibiy geometrik elementlarini unifikatsiyalash.

Modul bu — yaxlit shaklda, takrorlanib, qoldiqsiz joylanadigan, asos qilib olingan o'lchov me'yori hamdir. Karralik esa modulning qoldiqsiz joylanish tartibini bildiradi.

Ayni paytda zamonaviy me'morchilik moduli — 10 sm, quruvchilikda — 30 yoki 40 sm; stanok va asboblarda — 5 sm, interer jihozlarida — 5 va 15 sm ni tashkil etadi.

Badiiy shakllarning variantligi — xalq ijodining o'ziga xosligini ifodalaydi. Masalan, xalq naqshi, odatda, bir necha takrorlangan elementlardan iborat. Dog'iston zargarlarining naqshi 27 standart elementlardan tuzilgan, Ozarbayjon kashtalarida 3-5 bir xil mavzular qo'llangan.

— Hozir ularning barchasi shunchalik «kutyur» ko'rinishda qimmatbahoki, endi yangicha o'ylashni boshlash vaqti keldi, qandaydir yangi biror narsani taqdim etish lozim, — degan edi mashhur yaponiyalik dizayner I.Miyake. — Bu mening nazarimda, yangi modulda kiyimni taqdim etishdir.



2-rasm. Modul shakllari.


Modul odamning tana o'lchamlari va kiyimning optimal o'lchamlari asosida tanlanadi. Odatda, modul oddiy geometrik shakllardan iborat. Kiyim dizaynida modulning asosiy xossasi shundaki, uning o'ng va teskarisiga toza ishlov beriladi. Ularga qo'llangan materiallar, biriktirish usullari, ranglari, geometrik shakllari turli variantli buyumlarni yaratishga imkon beradi.



3-rasm. Kostyum siluetidagi geometrik shakllarning o'zaro birikishi.

Transformatsiya usulida o'zgartirishga imkon beradigan biriktirish usulini qo'llash lozim. Buyum shaklini o'zgartirish sabablari quyidagilar bo'lishi lozim:

- kichkinadan katta qilish yoki kattani kichik qilish (bu modulli o'ralish yoki modulni yozish usuli);
- oddiy shakldan murakkab shaklni hosil qilish yoki murakkab shakldan oddiysini yaratish;
- shaklni o'zgartirib, buyumni nimaga mo'ljallanganligini o'zgartirish.



4-rasm. Geometrik shakllarni kostyumda uyg'unligi.

Modul murakkab shaklli bo'lgani holda (gul, yaproq, kapalak, qushlar va b.), ularni bir-biriga tikib qo'yish mumkin yoki «brira» kashta usulida («rishele» kashta elementi) biriktirish mumkin. Har xil shaklli modullar bir-birining ustiga biriktirilganda murakkab kompozitsiyalarni yaratish mumkin (4-rasm).

Amaliy mashg'ulot №3

MAVZU: Libosdagi illyuziya xossalari (kinematizm) o'rganish va ularga asoslanib, (oq-qora va xromatix rangli) kiyim modellarni yaratish.

Ishdan maqsadi: Talabalarni illyustratsiya materiallaridan nusxa yaratish bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish.

Ishning mazmuni:

1. Illyuziya xususiyatlarini o'rganish.
2. Ranglarni, chiziqlar va burchaklar yo'nalishini o'rganish.
3. Kostyumni loyihalash, asosiy bosqich, usullari bilan tanishish.

Mashg'ulot uchun kerakli jihozlar:

A3 formatidagi qog'oz, rangli va qora qalamlar, qaychi, gazlama mato namunalari, tikuvchilik bo'rlari, sm lenta, to'g'nag'ichlar, maneken, moda jurnallari, model eskizlari.

Ishni bajarish tartibi


Har bir talabaga ishni bajarish uchun dizaynda badiiy ijod qilishni o'rganadi va ularga asoslanib kostyum shaklini yaratadi.

Ko'zning aldanishi (illyuziya) deganda, buyumni ko'rishdan hosil bo'lgan taassurot tushuniladi; lekin bu taassurot buyumning boshqa sezgi organlari orqali idrok qilinishidan boshqacha bo'ladi va mazkur buyum to'g'risidagi bilimimizga mos kelmaydi.

Ko'z bilan chamalashdagi normal aldanish ham ba'zan ko'zning aldanishi deb ataladi. Biz haqiqatan ham to'g'ri chiziq o'rniga egri chiziqni, past bo'yli odam o'rniga novcha odamni ko'ramiz va hokazo. Ko'zning aldanishi fizik, fiziologik va psixologik sabablarga bog'liq.

Gavdaning to'zilishidagi nuqsonlarni niqoblash (ko'zga chalinmaydigan qilish): bo'yi pastroq yoki balandroq, jussasi semizroq yoki ozg'inroq, tananing ayrim qismlarini yo'g'onroq yoki ingichkaroq qilib ko'rsatish maqsadida kiyimda ayni ko'zning aldanish xususiyatidan foydalaniladi (-rasm).

Ranglarni, chiziqlar va burchaklar yo'nalishini, o'lchov, shakl, sath, masofa, oraliq va hokazolarni idrok qilishda ko'zning aldanishidan ham kiyimda foydalaniladi. Idrok qilishdagi aldanish quyidagi turlarga ajratiladi: shaklni ikki o'lchovda idrok qilishdagi aldanish, uchinchi o'lchovni idrok qilishdagi aldanish va rangni idrok qilishdagi aldanish (bu holda shakl o'zgaradi) va hokazo.



5-rasm. Kostyumdagi yirik yo'llar:

a – gorizontaal; b – vertikal.

Kiyimni loyihalashda ko'zning yuqorida aytib o'tilgan aldanishlaridan, ya'ni illyuziyalar guruhidan turlicha foydalaniladi.

Demak, odam gavdasidagi ayrim nuqsonlarni: to'lalikni, ozg'inlikni, novcha bo'ylilikni, past bo'ylilikni va hokazolarni kiyimni ko'rish illyuziyalari orqali chalg'itish mumkin, ya'ni kiyimdagi mutanosiblik, chiziqlar, gazlama rangi, fakturasi, gullari orqali gavda ko'rinishini o'zgartirib ko'rsatish mumkin.

Amaliy mashg'uloti №4

MAVZU: Chiziqlarni plastik xususiyatlariga asoslanib, libos modellarini yaratish.

Ishdan maqsad: Chiziqlarni plastik xususiyatlariga asoslanib, libos modellarini yaratish.

•

Mashg'ulot uchun kerakli jihozlar: A3 formatidagi qog'oz, rangli va qora qalamlar, qaychi, gazlama mato namunalari, tikuvchilik bo'rlari, sm lenta, to'g'nag'ichlar, maneken, moda jurnallari, model eskizlari.

Tajriba mashg'uloti mashg'ulotini bajarish uchun topshiriqlar:

1. Tajriba uchun kerakli materiallar va asboblari.
2. Tugunchalik batik tarixini o'rganish.
3. Tajribani bajarish texnologiyasi bilan tanishish.
4. Bo'yalgan gazlamadan libos model eskizini ishlab chiqish.


Materiallar va asboblari: o'lchami 20x20 sm bo'lgan ip-gazlama, ipak mato; № 10 tikuv iplari; bo'yash uchun idish; kanselyar rezinkasi; qisqichlar, tugmachalar, munchoqlar; Faol, bevosita, kislotali, asosli bo'yovchi moddalar; mo'yqalamlar: №3; №10-12; №20; purkagich; yog'och qolip (rama); dazmol; igna.

Tugunchalik batik Hindixitoyda VII asrdan avval ham ma'lum bo'lgan edi. Hindistonda badxey (bog'lab-bo'ya) nomi bilan hozirgi kungacha ma'lum. Malayziya va Indoneziyada tugunchalik batik plangi deb nomlangan. Yevropa mamlakatlarida batikdan XX asrda foydalanila boshlandi va 70-yillarda, ayniqsa, keng ko'lamda qo'llanildi.


Tugunchalik batikda mato bog'lanadi va erkin holda bo'yaladi. Matoni bog'lashni tanda iplari bo'yicha (1) yoki diagonali (2) bo'yicha amalga oshirish mumkin. Bog'langan mato bo'yalgach, uning yuzasida doira yoki konsentrik halqalar hosil qilish mumkin.

Bog'lam o'rniga tikuv iplari yoki lentochkalar yordamida matoda keng (3) yoki ingichka (4) bog'lamlar hosil qilish mumkin. Matoni perpendikulyar ko'tarib, uning kerakli qismlarini bog'lab chiqish lozim (5). Nuqtalar yoki kichik aylanalar hosil qilish uchun mato buklamini ma'lum masofada nina-ip bilan bir necha marta o'rab va tortib chiqish kerak.

Marmar naqshini tushirish uchun matoni g'altaksimon yig'ib, chilvir bilan bog'lab, so'ng bo'yaladi (6). Naqshlarni boyitish maqsadida munchoq, tugma, toshchalar quritilgan no'xotdan foydalansa bo'ladi. Bu predmetlarni matoga o'rab mahkam bog'lanadi va bo'yaladi (7).





1-rasm. O'rab va Tortib chiqish




3-rasm. Predmetlar yordamida naqish tushirish.

Matoni to'g'ri yoki diagonali bo'yicha taxlash orqali ham ajoyib geometrik naqshlar

hosil qilish mumkin. Masalan, matoni to'rt qatlam qilib buklab, dazmollab va song ib bilan bog'lab bo'yaladi.(1.2.3.4.5)




Ikkiga buklangan matoni plisselab, hosil bo'lgan burchaklarning yuqori qismini



ichki tomonga kirgizib, bog'lanadi va bo'yaladi (1, 2, 3, 4).


5-rasm. Matoni buklab bog'lash orqali naqsh tushirish.

Quyidagicha (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7) buklangan matoni ketma-ket bo'yash orqali ikki rangli naqsh hosil qilish mumkin.




6 - rasm. Buklangan matoga ikki rangli naqsh hosil qilish

Matoni ham buklab bog'lash, ham tikish (ip № 10) yo'li bilan naqshlar hosil qilish mumkin. Bunda avval mato yuzasiga qalam bilan gul tushiriladi, so'ng mayda chok (5 mm) bilan tikib chiqiladi va buklamlarga bo'yovchi modda o'taolmaydigan darajada iplar mahkam tortiladi va shu iplar bilan bog'lab qo'yiladi, so'ng bo'yaladi. Agar mato diagonal bo'yicha tikilsa, diagonal yo'llar hosil bo'ladi. Buklash va tikish birgalikda qo'llansa, rombsimon naqshlar hosil qilish mumkin.



Shu usul bilan har qanday geometrik naqshlarni matoga tushirish mumkin: egri-bugri, kvadrat, egri chiziqlar, ovallar va boshqalar.



7-rasm. Matoga buklash va tikish yo'li bilan naqsh tushirish

5-Amaliy mashg'uloti

MAVZU: Tarixiy va milliy kostyumning boy merosini qo'llab, libos modellarini yaratish.

Ishning maqsadi: Tarixiy va milliy kostyum turlari, elementlari va shaklari. Milliy kiyimlarni turli modellarini yaratish.

Ishning mazmuni:

1. Model yaratishni o'rganishi.
2. Milliy kostyum modelini yaratish.

Kerakli jihozlar:

moda jurnali, lineyka, kalka, qalam, maketlik material, gazeta bo'laklari, rangli qog'oz, akvarel, rangli qalamlar, va oddiy qalam.

Ishni bajarish tartibi

Har bir talabaga ishni bajarish uchun dizaynda badiiy ijod qilishni o'rganadi va ularga asoslanib kostyum shaklini yaratadi.

An'anaviy milliy ko'ylak gavda qismi to'g'ri bichimli, koketka chizig'i bo'ylab burmali bo'ladi. Koketka asosan ko'ylakning gavda qismiga o'lchanadigan chizig'i bo'ylab dumaloq bo'ladi. Old tomonda koketka bo'laklaribir birining

ustiga o'tib turadi. Yoqasi qirqma, yoqa umizi bo'ylab o'tqazma, qaytarma xillari bo'ladi. O'zbekcha kiyimning ko'p asrlik boy tarixi bor. U nda xalqimizning o'tmishi, iqlim sharoiti, turmush tarzi ko'zguda aks etgandek ifoda topgan.

Uzun yaxlit, kaketkali an'anali ko'ylak xalq kiyimida iqlim xususiyatlariga, tevarak atrofdagi tabiatga va turmush tarziga to'g'ri keladigan shakllar, bichimlar bir necha asrlardan beri saqlanib qoldi. Ko'ylakning gavadaga bema'lol tushishi jazirama quruq iqlim sharoitiga mos keladi.

Kostyum loyihalash – bu tadqiqot etib, eskizlar, maketlar va modellarni yaratish, buyumlarni chizmasini va xisobini ishlash, tajriba uchun namunalarni ishlash, belgilangan xususiyatlarga ega yangi kiyim namunasini yaratish jarayondir.

Dastlabki loyihalash tadqiqotlar va o'xshash modellar taxlili asosida yangi ijodiy kontseptsyada tug'iladi, ular eng avvalosiymoda o'z aksini topadi. Siymo balki eskizda yaratilib, maketda va keyin modelda ifoda etadi yoki bevosita gazlama bilan maketlash jarayonida modelga aylanadi.

Loyihalashni asosiy bosqichlari. Yangi buyumlarni, yangi xossalarni va buyum muhitini yangi funktsiyalarini loyihalashga dizayn faoliyati moslangan.

Loyihalash jarayonida fanning yutuqlari qatorida (sotsiologiya va prognozlashni) siymo-assotsiativ usullari ham o'rganiladi, ular shaklni ma'no va sotsiomadaniyat mazmuni bilan to'ldiradi.

Dizayner faoliyatini loyihalash asosi – ijtimoiy talablarni inobatga olish.

Kostyumni loyihalash asosiy bosqichlari quydagilar: loyihalashdan oldingi vaziyatni tahlil etish; shakllantirish ma'lum turlarini tahlil natijalarini sintez etish; asosiy vazifalarni aniqlash;

- loyiha vazifani yechish uchun optimal variantlarni qidirishda har xil loyihalash usullarni qo'llash.

Loyihalashdan oldingi vaziyatni tahlil etish. Loyihalashni boshlang'ich bosqichida loyihalashdan oldingi tadqiqotlarda buyumni funktsiyalarini, buyumlar yoki sharoit kompleksini, loyihalayotgan buyumni yoki sharoitni tashqi ko'rinishi to'g'risida, o'xshash modellarni borligi bo'yicha ko'rsatkichlar taqqoslanadi.

Loyihalashdan oldingi tahlil ijtimoiy-iqtisodiy, funktsional (buyum bilan foydalanish usullarni tadqiqot etish), funktsional – qiymatiga oidligini (aholining har xil guruhlarini istaklar tarkibini tahlil etish), texnologiya va shaklni (buyum va uni analoglarning tarkibini tahlil etish, kompozitsion, konstruktiv va plastik yechimlarini qidirish) tahlil etishni nazarda tutadi.

Loyihalashdan oldingi tahlilning natijasini shakllantirish muayyan turlarida sintez etish. Dastlabki loyihalash tahlildan so'ng buyumni moddiylashtirish usulda (kompozitsiyasini tarkiblashtirish va uyg'unlashtirish) natijasini sintezlash.

Dizaynda sintez – bu dizaynerlik tahlilda loyihaga oid ma'lumotlarni fikriy tartibga solish jarayonidir va ularni yaxlitlikka biriktirib, loyiha siymosini yaratishdir. Yagona buyumlarni tarkiblanishi shakllanish deb nomlanadi. Sintez usullari tizimli (kombinator, o'xshashli) yoki o'z-o'zidan kelib chiqadigan intuitiv harakatda bo'lishi mumkin. Sintez jarayonida o'tqazilgan tadqiqotlarning natijasi aniq shakllantirish usullari bilan amalga oshiriladi. Kostyumni shakllantirish kombinator va o'xshash usullari yetarlicha o'rganilgan.

Ijodiy kontseptsiyani ishlab chiqish. Sintez jarayonida ijodiy kontsepsiya tuzish – bu dizayner vazifasini yechish eng muhim qismidir. Dizaynda kontsepsiya – asosiy g'oya, maqsadlarni, vazifalarni va vositalarni ma'naviy yo'nalishi.

Dizayn–loyihaning asosiy vazifalarini aniqlash. Dizayn-loyihani ustidan ish asosiy vazifalarni aniqlashdan boshlanadi. Eng avvalo loyihalayotgan buyumni mo'ljali va funktsiyasi, konstruktiv va texnologik talablari aniqlanadi. Shu bilan birga loyihalashning maqsadi mavjud buyumlarni zamonaviylashtirish ham, ya'ni zamonaviy tashqi ko'rinishni berish (stayling yoki timsol asosida loyihalash), va vazifani printsiptial yangi yechim asosida yoki avval noma'lum texnologik printsip bo'lishi mumkin.

Loyihalash usullari. Loyiha vazifalarni eng optimal variantini qidirish jaryonida dizayner modellash va maketlash usullarni qo'llaydi.

Dizaynda modellash – bu bir butun ob'ektni yoki ob'ektlar tizimining vaziyatini yoki funktsional jarayonini aks etish, tasavvur etish yoki ta'riflab berish

jarayondir. Badiiy siymo, loyiha-grafik (eskiz yaratish), retrospektiv, konstruktiv, perspektiv, texnikaviy va komp yuter modellash usullari mavjud.

Loyiha-grafik modellash loyiha g'oyasini yaratishda va aks etishda yordam beradi.

Loyiha-grafik-modellash quyidagilarni ko'zlaydi: grafik shaklini loyiha vazifaning ma'nosiga moslaydi; eskiz loyihani variant qidiruv va tajriba harakati; qo'yilgan vazifani yechish uchun loyiha qidiruvni mantiqiy ketma-ket va tizimli yondashish.

Mavjud loyiha g'oyalarni, texnologiyalarni, korxonalarning iqtisodini, badiiy madaniyat yutuqlarini (me'morchilik, rangtasvir, haykaltaroshlik) inobatga olib, dizayner avval o'z tasavvurida kelajak buyumning eskizini va dastlabki grafik tasvirini yaratadi (qidiruv eskiz, for-eskiz).

Yangi yechimlarni qidirish va variantlarini tanlanish qog'ozda qilinadi. Keyin buyumning tashqi ko'rinishini ta'rif va amaliy foydalanish qoidasi aniqlanadi. Natijada loyihalayotgan buyumning badiiy-uslubiy va rangli-fakturaviy yechimi (eskiz loyiha) va konstruktsiyasi, modelning proportsiyasi va silueti to'g'risida to'liq ma'lumot beriladi.

Dizaynda eng keng qo'llanadigan usul – retrospektiv modellash, ya'ni timsol va model o'xshashlarni tahliliga asoslangan va ushbu tahlilni asosida yangi loyiha vazifasini tashkil etish. Ammo, bu usul dizaynning asosiy vazifasini bajarishga imkon bermaydi – yangi buyumlarni yaratish emas, balki mavjudlarni takomillashtirishdir.

Dizaynda boshqa modellashtirish usul – konstruktiv modellashdir – bu buyumning funksiyasini va morfologiyasini (morfologiya – buyumni funksiyalariga moslashgan) material shaklini o'zgartirish. Konstruktiv modellash quyidagicha bo'lishi mumkin: korrektiv - buyumning funksiyasi va shakli takomillashtiriladi; o'timli - buyumga yangi xossalarni berish uchun funktsiya va morfologiya qaytadan tushunib yetiladi (masalan, kiyim dizaynida dekonstruktsiya usuli); proeksion - buyumni funksiyasi va shakli qaytadan yaratiladi (kiyim yapon dizayneri I.Miyake ijodi).

Dizaynda eng innovatsion usul deb perspektiv modellash yoki loyihaviy prognozlash hisoblanadi, u jamiyatning perspektiv rivojini o'rganish bilan shug'ullanadi va shu timsoliga yetishga imkon beradigan loyihani yaratadi.

Kostyum dizayneri texnolog va konstruktor bilan birgalikda avval eksperimental modelni ishlab chiqadi (sinov uchun namuna), u sinovdan o'tqaziladi va shu jumladan iste'molchilar tomonidan. Keyin kamchiliklari tuzatilgandan so'ng, sinov o'tqazib, sanoat uchun namuna ishlanadi (ishchi loyiha). Keyin ommaviy ishlab chiqarish uchun korxonaga beriladi. Ishchi loyihaga quyidagi hujjatlar kiradi: andazalar, buyumning texnologik ishlov berish haritalari, rangli va fakturaviy yechim uchun haritalar.

Texnikaviy modellash – bu bazaviy model yoki uni grafik tasviri bo'yicha chizmalar va kiyim namunasi ishlash jarayonidir. Ishlab chiqarilgan namuna ommabop ishlab chiqarish korxonalarga shakl va konstruktsiyasi bo'yicha namuna bo'ladi.

Zamonaviy dizaynda komp yuter dizayni muhim o'rinni egallaydi, chunki u yangi texnologiya rivojlanishi nuqtai nazaridan eng perspektiv desa bo'ladi. Komp yuter dizayni mustaqil yo'nalishga asoslanib, ma'lumot bilan vizual ishlashga asoslangan (komp yuter grafikasi, dizayn WEB-sahifalar).

Foto- va video ko'rgazma materiallarga komp yuter ishlov berish, raqamli tarqatuvchilarning vizual ma'lumotlarni keng yoyilgani (maslan, moda fotosuratlar endi retushdan voz kechishdi, endi fotografiya komp yuterda ishlab chiqarilganda nafaqat nuqsonlari yo'qotiladi, balki modelning ko'z, soch va terisini rangini o'zgartirish mumkin). Kelajakda ehtimol bu usul tirik foto- va top-modellardan voz kechishga olib keladi. Komp yuter dizayni xayoliy real va virtual siymolarni yaratishga qaratilgan.

2001 yilda Frantsiyada birinchi virtual fotomodel yeva Solal paydo bo'lgan, u "Madam Figaro" jurnalni muqovasida manekenshchitsa kasbini boshlagan. Uning ishtiroqchilari M.Mians, F.Levi va A.Leyroni bo'lgan. Ular virtual personajlarni yaratishga ixtisoslashgan dunyoda birinchi firmani barpo etishgan.

Shakl dasturlashga va seriyalikka asoslangan komp yuter grafikasi shaklni ko'p har xil turlarini yaratishga, buyumni batafsil modellashga imkon beradi. Uch o'lchamli komp yuter grafikasi mavjud emas ob'ektlarni hajmiy tasvirini yaratishga imkon beradi. Komp yuter dasturlar bilan stilistlar foydalanadi (makiyaj va soch turmagi, kiyim modelini ma'lum shaxs uchun tanlash); to'qimachilar va trikotaj dizaynerlari (naqsh, rang gammasi variantlarini yaratishda); kiyim dizaynerlari (modellar ekizini ishlash); konstruktor va texnologlar. Komp yuter modellashning rivojlanishi ishlab chiqarish yangi texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq, masalan, reklama va poligrafiyada.

Kiyim ishlab chiqarishda ham komp yuter dasturlar keng qo'llanmoqda. Ular yangi modellar joriy etilganda harajatlarni kamayishga, moslashuvini va harakatchanligini tezlashtirishga imkon beradi: loyihalashni avtomatlashtirgan tizimi, konstruktorlik dasturlari standart va shaxsiy o'lchamlar asosida nafaqat bazaviy asosni tuzishga, unga model xossalarini kiritishga imkon beradi, balki mavjud emas modelning hajmiy tasvirini modellashga ham imkon beradi.

Ammo, komp yuter modellashning istiqboli ajabli bo'lsa ham dizaynda yangi modellarni yaratganda dizaynerni roli kamaymaydi. Komp yuter hech qachon dizaynerning o'rnini bosmaydi, u ijodkorni qo'lida faqat moslama sifatida qoladi (qalam yoki mo'yqalam kabi), loyihalashning ba'zi bosqichlarini tezlashtirib va yengillashtirib. Eng muhimi – komp yuter grafika dizaynning mohiyatini va ma'no qiymatini asoslaydigan yangi g'oyalar va tamoyillarni yarata olmaydi.

Loyihalash usullaridan yana biri – maketlash. Dizaynda maketlash - bu masshtabda yoki asliga mos har xil materiallardan maketlarni ishlash. Maket – loyihalayotgan buyumni materialdan ishlab chiqarishdir. Hajmiy maketlar buyumning fazoviy tarkibi, o'lchamlari va proporsiyalari to'g'risida tasavvur beradi. Kostyum maketini yaratish uchun material sifatida maket materiallari, qog'oz, noto'qima materiallar, tselofan, sun'iy charm, plastelin va b. qo'llanishi mumkin. Zamonaviy kostyum dizaynda asosan loyiha-grafik modellash va maketlash usullari qo'llanadi.

Amaliy mashg'ulot №6

MAVZU: Milliy kostyumning boy merosini qo'llab, libos modellarini yaratish.

Ishning maqsadi: XIX - XX asr boshidagi o'zbek kostyumini turlari, bichimi, mintaqaviy va ijtimoiy farqlari bilan tanishish va nusxalarini chizishni o'rganish.

Ishning mazmuni:

1. XIX - XX asr boshidagi o'zbek erkaklar kostyumi
2. XIX - XX asr boshidagi o'zbek ayollar kostyumi.

Kerakli jihozlar:

Ko'rgazmali albom, 12 formatdagi chizma qog'ozi, qalam, akvarel bo'yoq.

Ishni bajarish tartibi:

Har bir talabaga ishni bajarish uchun dizaynda badiiy ijod qilishni o'rganadi va ularga asoslanib kostyum shaklini yaratadi.

Ayollar kiyimi. Qadimdan ayollarning an'anaviy ichki kiyimi tunikasimon ko'ylak va lozimdan iborat edi (38–41 rasm).



8 – rasm. Ayollar ko'ylaklari.


Ko'ylakning shakli to'g'ri, ba'zan etagi kengaygan bo'lib, uzunligi to'ig'igacha edi. Qizlar ko'ylagida yoqa o'mizi ko'ndalang qilinib, chetlari boshqa rangdagi mato yoki tasma bilan tikib chiqilardi va o'sha matodan tayyorlangan tasma bilan bog'lanardi yoki bitta tugma bilan qadab qo'yilardi. Turmushga chiqqan ayollar esa vertikal kesimli ko'ylaklarni kiyishardi. Kesim ko'ragini o'rtasidan uzunligi taxminan 25 sm qilinib, tasmalar bilan bog'lanar, bitta tugma yoki to'g'nagich bilan qadaldardi. Buxoro va Samarqand viloyatlarida ayollar kiyimida yoqa o'mizining chetlari zarbob tasma "eshko'rta" va kashta bilan bezatilgan. Yoqa o'mizi bu yerlarda juda uzun (etagiga sal yetmas edi) qilinardi. Ko'ylaklar juda keng bo'lgan, uning yenglari esa juda keng va uzun bo'lib, kaftni berkitib turgan. yenglari, ba'zan, boshqa qimmatbaho matodan qilinardi yoki kashta bilan bezatilardi. Ayollar qo'lini ko'ksiga qo'yib yurishardi va shu bois yengining go'zalligi to'liq ko'rinardi.



9 – rasm. Ayollar ko'ylaklari.

O'rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin tik yoqalar 'aydo bo'la boshladi. Ularni keyinchalik 'lissirovkalik "ar-'ara" bilan bezatishadigan bo'ldi. Turkiston o'lkasida (avval shaharlarda, so'ngra qishloqlarda) odatda vertikal qirqimli qo'koq bilan berkitilgan, baland tik yoqa kirib kela boshladi. Bu yoqani "ish yoqa", "nugoy yoqa", zarafshon vodiysida "qozoqi yoqa" deb atashardi.

Yosh ayollar birinchi farzand tug'ilganicha uchlari yuqoriga qaragan ko''gina uchburchak ko'rinishda "tishchalar" yoki 'lissirovka bilan bezalgan 'ar - 'ara tik yoqali ko'ylaklarni kiyishgan. Shunday tik yoqa o'zbek va tojik ayollarning ko'ylaklari uchun xos edi. XIX asrning oxirlarida qirqilgan koketkali ko'ylak - ko'krakburma ko'ylak 'aydo bo'ldi. Bu ko'ylak asr davomida tunikasimon bichimning rivojlanishi natijasida kelib chiqdi. Ko'ylak ser burmalangan gavda qismi, yelkasi qiya bichilgan koketka, o'tkazma yeng va yoqa qismlaridan iborat. Ushbu ko'ylak keyinchalik ayollar garderobida barqaror o'rnashib qolib, ayollar milliy kostyumining asosi bo'lib qoldi.



10 – rasm. Ayollar ko'ylaklari.

Shular qatorida, tunikasimon bichimli, tik yoqali va yenglari manjetli ko'ylaklar ham keng tarqalgandi. Katta yoshdagi ayollar vertikal kesimli yoki 'lissirovkasiz tik yoqali ko'ylaklarni kiyishni davom etishgan.

Shu davrda uzun, uchi tor yengli ko'ylaklarni kiyishgan, ularga tirsak va bilak orasida ingichka, kashtalangan tasmalar tikishgan. Ilgarilari bu tasma o'rtasida kesim qirqilib, undan ishlagan 'aytlarida qo'llarini chiqarib qo'yar edilar, yeng uchini esa shimarib qo'yishardi. Bunday ko'ylaklar asosan Xorazmda qayd etilgan. Xozirgi 'aytda kashtalangan tasma tikilib, kesim qilinmaydi, u dekorativ bezagi bo'lib qolgan.

Uy ichida bitta va sovuq kunlarda ikkita ko'ylak kiyilardi. Bayram kunlari aholining taniqli, boy tabaqalaridan bo'lgan ayollar ustima - ust uchta ko'ylakni kiyishardi. Bunda uchala


ko'ylakning yenglari bir xil kenglikda, lekin har xil uzunlikda bo'lib, birinma ketin biri ko'rinib turardi, yeng uchlari esa kashta bilan tikib chiqilgandi. Agarda yana ham boyliklarini ko'rsatmoqchi bo'lsalar, o'zlari bilan bir necha ko'ylakni olib, mexmonga kelgandan so'ng, vaqti-vaqti bilan almashtirishar edilar.



11 – rasm. Ayollar bosh yo'inchiklari.

Samarqandda mursakning tor yenglari qo'lning kaftigacha yetardi; Buxoro va Qashqadaryoda esa yenglari keng bo'lib, tirsakdan tushib turardi, uning ostidan ko'ylak yenglari chiqib turardi. Xorazmda oddiy cho'ondan mursak faqat yengining shakli bilan farqlanardi (yengi uchiga qarab toraygandi).

Qadimdan erkaklarning ichki ko'ylagini uzunligi tizzagacha bo'lgan, keyinroq uni buksasigacha qisqartirishdi. Ko'ylakning yoqasi ikki xil bo'lgan. Farg'ona vodiysida yoqani to'g'ri to'rtburchak shaklda matoni dioganali bo'yicha qirqib, keng tomonlarini biriktirib vertikal yoqa o'miziga tikishgan. Ko'ylakning ikkinchi turida esa, yoqa o'mizi gorizontal qilinardi. Farg'ona vodiysida va Toshkentda uni "mullavacha" deb atashardi. Yoqa o'mizining chekkasi jiyak bilan tikib chiqilardi. Ko'ndalang yoqali ko'ylakni Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Xorazmda ham kiyishgan.




12 – rasm. Erkaklar kiyimi.

Farg'ona va Toshkent viloyatlarida ichki ko'ylak "yaxtak" keng tarqalgandi. Uni i' matolardan (chit, bo'z, i'ak) tikishardi. Yaxtakni yoshlar va keksalar kiyishgan. Bu yengil va qulay ko'ylakning oldi ochiq bo'lib, uzunligi tizzagacha yoki uzunroq edi. Yoqasi zich choklar bilan qavilardi, ko'kragida bitta tugma va izmaga tugmalanardi.

Erkaklarning asosiy oyoq kiyimi maxsi, kavush bo'lgan. "Amrikon" (Amerikadan kelgan) charmdan qilingan oyoq kiyimlari qimmatbaho bo'lgandi. Maxsi va qavushlar qalin charmdan qilinardi. Yozda kavushning o'zini kiyishardi (94 - rasm). Ulardan tashqari erkaklar baland kunjli va 'oshnali etik kiyishgan.

Qishloqda oyoq kiyimlar oddiyroq bo'lgan: etik, "chorik" (kunjsiz oyoq kiyim), kalta etik "mukki" ('oshnasiz, yumshoq va qattiq teridan tikilgan), yoki "tovuldiriq" (yog'ochdan qilingan uch oyoqli), dalada ishlaganda "xom kavush" (mol yoki ot xom terisidan ishlangan) kiyishgan.



13– rasm. Erkaklar oyoq kiyimlari.

Amaliy mashg'ulot №8

MAVZU: Ijodiy manbaa asosida libos modellarini yaratish.

Ishning maqsadi: Inson tanasini ko'rinishini hisobga olgan holda kiyimni oddiy shaklini tayyorlash..

Ishning mazmuni:

1. Oddiy gazlamalarni o'rganishi.
2. Oddiy gazlamalarni libos yaratish.

Kerakli jihozlar:

Qolip, 12 formatdagi oq qog'oz, chizg'ich, qalam, moda jurnallari.

Ishni bajarish tartibi

Har bir talabaga ishni bajarish uchun dizaynda badiiy ijod qilishni o'rganadi va ularga asoslanib kostyum shaklini yaratadi.

Ananaviy milliy ko'ylak gavda qismi to'g'ri bichimli, koketka chizig'i bo'ylab burmali bo'ladi. Koketka asosan ko'ylakning gavda qismiga o'lchanadigan chizig'i bo'ylab do'maloq bo'ladi. Old tomonda koketka bo'laklaribir birining o'stiga o'tib turadi. Yoqasi qirqma, yoqa o'mizi bo'ylab o'tqazma, qaytarma xillari bo'ladi. O'zbekcha kiyimning ko'p asrlik boy tarixi bor. U nda xalqimizning o'tmishi, iqlim sharoiti, turmush tarzi ko'zguda aks etgandek ifoda topgan.

Uzun yaxlit, kaketkali an'anali ko'ylak xalq kiyimida iqlim xususiyatlariga, tevarak atrofdagi tabiatga va turmush tarziga to'g'ri keladigan shakllar, bichimlar bir necha asrlardan beri saqlanib qoldi. Ko'ylakning gavdaga bermalol to'shishi jazirama quruq iqlim sharoitiga mos keladi.



Buyumni tashqi ko'rinishini va chegarasini ifodalaydigan geometrik mohiyati shakl deb hisoblanadi. Shakl (lot. forma) – tashqi ko'rinish, chegara.

Shaklni tanlash va uni tuzilishidan san`at boshlanadi, deb san`atshunoslar deyishadi.

Shakl tushunchasining mohiyati. Shakl tushunchasini quyidagi xossalar bo'yicha tahlil etish mumkin:

- shakl – falsafa kategoriyasi;
- shakl – timsol;
- shakl – buyum;
- shakl – faoliyat.

Shular bilan bir qatorda shakl tizimining dinamik modeli, ya'ni ko'rsatkichlari doimo o'zgaruvchan deb tasavvur etish mumkin.

Shakl tushunchasi insonning dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq. I.Kantning fikri bo'yicha – bu figura tashqi ko'rinish yoki o'yin. O'yin fazoda va muayyan vaqtda ro'yobga chiqadi.

Demak, shakl o'tmish va kelajak bilan taqqoslab tahlil etish lozim.

Har bir shaklni tashqi muhit bilan bog'lanishini ham tadqiqot etish zarur.

Vaqt mobaynida moda shaklning rivojlanish ketma-ketligini, namunaning paydo bo'lishini, zamonaviy shakl standartini dam-badam rassomlar tomonidan buzilishini anglaydi, va uslubni o'zgarishiga uni rivojlanishiga va yangilanishiga olib keladi.

Shakl buyum mavjudligining usuli, texnik va estetik zarurligi bilan ta'riflanadi.

Shakl ma'lum psixologik ma'noni ifodalaydi va muayyan obrazli mazmunni ifodalovchi belgi, ramz tizimi deyiladi.

Kostyumdagi shakl - bu kostyum elementlari (kiyim, bosh va oyoq kiyim, qo'shimchalarning) morfologik va plastik aloqa tizimi.

Dizayn shakli yaratilganda quyidagi talablarga ahamiyat beriladi:

- funktsional - buyumning texnik maqsadini va odamning utilitar talablarini oldindan aniqlash;

- konstruktiv-texnologik - material konstruktsiyasining fizik va mexanik xususiyatlaridan ratsional va tejamli ifodalash;

- estetik jamiyatning estetik idealiga buyumning mosligi.

Kostyum shakli odam bilan chambarchas bog'liq va faqat uning siymosi, razmeri, xarakatini inobatga olgan holda tahlil etilishi lozim.

Kostyum har xil qatlamlarga ko'ra tadqiq etilishi lozim. Har bir qatlam o'z xossalariga ega:

- ustki qatlami: rang, faktura, chiziq, naqsh, bezak, ya'ni kompozitsion bezak qatlamlaridan iborat;
- geometrik tarkib, qaysi shakl elementlarining o'zaro proportsional nisbatlarini aniqlaydi;
- tana va qobiq - kostyum orasidagi fazo;
- odam figurasi.

Kostyum shakli biologik tizim kabi xususiyatlar to'plami yordamida barpo etiladi. Demak, shakl - bu odam qomati, muhit va belgilangan muayayyan funktsiya bilan bog'liq, elementlari o'zaro tarkibiy moslashgan fazoviy-vaqt dinamik modeli.

Shakl tarkibi. Kostyumni ma'lum tarkib ifodalaydi – ya'ni, uning bo'limlarining tarkibi.

Siymoli, funktsional va texnik yechimlari bilan bog'langan shakl geometrik elementlarining ma'lum tizimi shakl tarkibi deb tushuniladi.

Kostyum tarkibini o'rganish uchun shaklni oddiy xususiyatlari, geometrik figuralar, ularning aloqalari va kombinatsiyalari orqali kiyimning turli-tuman turlarni ifodalash zarur.

Tarkib elementi– bu eng oddiy geometrik shakl, ya'ni shakl yaratish uchun “qurilish” materiali (Rasm 10 – 11).

Kostyum tarkibini anihlash uchun hajmlarning geometrik asoslarini ajratib olish kerak. Bu holda albatta bezak elementlari hisobga olinmaydi.

Kostyumda asosan uchburchak, to'rtburchak, trapetsiya va oval kabi tarkib elementlari uchraydi.

Tashkiliy printsipli bo'yicha kostyum tarkibi simmetrik va nosimmetrik bo'lishi mumkin.

Simmetrik tarkibli kostyum odam figurasiga nisbatan simmetrik joylashadi, nosimmetrik tarkibli kostyumda esa – figura va kostyum nosimmetrik joylashadi.

Kostyum tarkibi stabil va mobil elementlaridan iborat

Stabil elementlar asosiy tarkibiy elementlarning shaklini, kelajak mohiyatini, uning geometrik shaklini va fazoviy tavsifini aniqlaydi. Kostyumda unga asos qilib olingan geometrik shakl, kostyum bo'limlarini proportsional nisbatlari va gavdani tutish holati hisoblanadi.

Mobil elementlariga (tez o'zgaradigan) bezaklar, chiziqlar, material, faktura, rang, naqsh, ya'ni shaklni to'ldiradigan elementlar va stabil tarkib chegarasida tez-tez o'zgaradigan elementlar kiradi.

Kostyum shakllari eng avvalo stabil elementlarning umumiyliigi bilan birlashadi, mobil elementlarning hilma-xilligi esa ularga individuallik berib, aniqligini ifodalaydi.

T.Kozlovning ilmiy-tadqiqot izlanishlarida kiyimni shakli tuzilishida bir necha qonuniyatlar aniqlangan:

1.Kostyumning asosiy elementlari to'rtburchak, trapetsiya va oval bo'lgan. Bulardan har biri ma'lum vaqt tsiklda takrorlanadi va vaqti-vaqti bilan bitta shakl boshqalariga nisbatan peshqadam-lider bo'ladi. Lekin ikkita boshqa shakllar g'oyib bo'lmasdan, birga "yashaydi" va doimo rivojlana boradi. Ma'lum bir vaqt o'tganda peshqadam shakl inqirozga uchraydi va ikkitadan bittasi peshqadamlikka o'tadi. Spiral qonuni rivojiga ko'ra bu voqea doimo takrorlanadi va qonuniyat bo'lib qoladi. Peshqadam shakllar ma'lum bir vaqtda takrorlanib shaklni o'xshash (analog) qatorini yaratadi. Shaklni siluetlari o'xshash bo'lgan holda uning ichki yechimi, dekorativ elementlari, konstruktiv tizimi, obrazli yechimi har xil bo'ladi, chunki bir vaqt davomida o'ziga xos texnik, ijtimoiy va ma'naviy turmush farovonligi bo'ladi (Rasm 13).

2. Shakl rivojlanish jarayonida geometrik va plastik shakllar bir-birining o'rniga keladi. Nozik, figurani tabiiy proportsiyalarini ta'kidlaydigan kiyim shakli

o'rniga, figurani yashiradigan hattoki uni o'zgartiradigan geometriklashgan kiyim shakllari keladi. Bu ketma-ketlik bir-biridan chiqib shakl rivojlanishida uzilmas zanjirni yaratadi. Modaning rivojlanish jarayonida plastik va geometrik shakllarni rag'batlarining qarama-qarshiligi ularni eng yuqori darajada erishgan davrida seziladi. Lekin shakllar rivojlanishi jarayonida ushbu rag'batlarning o'zaro aloqadorligi yuzaga chiqadi (Rasm 11).

3. Shakl tirik organizmlar kabi tashqi o'zgarishlar ta'sirida pul satsiya etadi. Pul satsiya vertikal va gorizontal yo'nalishlarda bo'lishi mumkin.

Kostyum rivojlanish jarayonini o'z amplitudasi bor: tanaga yopishib turishdan, hattoki siqib qo'ygan holdan, tanadan maksimal uzoqlanishgacha. Ular davrni estetik ideal va texnik imkoniyatlari bilan bog'liq (Rasm 11).

4. Mobil elementlar shakllantiruvchi bo'lib, shaklning paydo bo'lishiga, rivojlanishiga va inqirozga uchrashiga sabab bo'ladi.

Bir tsiklning ichida mobil elementlarning faolligi natijasida shaklning o'zgarishi bir necha bosqichlardan iborat:

- yangi g'oya-shakl paydo bo'lganda, elementlarning o'zaro aloqasi o'xshashlik printsipli bo'yicha tuziladi. Bu shaklni yaqqol ko'rinishga olib keladi. Kostyumning gorizontal va vertikal yo'nalishi bo'yicha ichki chiziqlari, dekorativ-konstruktiv yechimlari va material fakturasi shaklni yaxlit ko'rinishiga sabab bo'ladi. Bu bosqichda (3-4 yil) shakl murakkab va yirik detallar bilan yuklanmaydi, materialning tarkibi esa shaklni yaxshi saqlaydi va silliq yaltiramaydigan bo'ladi.

- keyingi bosqichda (3-4 yil) kostyum elementlarining o'zaro aloqasi kontrast printsipli bo'yicha tuziladi. Rivojlanayotgan g'oya-shakl tasdiqlanadi va murakkab konstruktiv-dekorativ chiziqlar va naqshlar bilan to'ldiriladi. Kontrast bezakli detallar va har xil fakturali material birikmalari shaklda qo'llaniladi. Materialning tarkibi qalinlashadi va fakturasi har xil effektlar bilan boyitiladi (to'qilmagan, bo'g'imlar va b.). Detallar va chiziqlar yechimida boshqa yo'nalishlar qatorida diagonal yo'nalishi qo'llaniladi. Bular qo'shimcha kompozitsion imkoniyatlarni yaratadi.

- shaklning uchinchi bosqichi (3-4 yil) ziddiyatlilik printsipli bo'yicha tuziladi. Bu davrda kiyimning hajmli shakli faol talqin qilinadi. Tarkibi siyraklashgan materiallar shaklni bo'rttirib ko'rsatadi. Kentsentrik tasvirlar, spiral yirik naqshlar shakl ichida yo'nalish tug'dirib, shaklni inqirozga uchratadi. Shaklning hajmi konstruktiv usullar bilan kuchaytiriladi (uzoqlashgan va o'zgaradigan detallar, ko'p qavatlik va b.). Lekin har xil bichim, nosimmetrik va spiral yo'nalish fonida yangi perspektiv shakl chegaralari seziladi. Kostyum shaklini matritsa usulida tuzish mumkin (Rasm 14).

Ma'lum tarixiy davrni ifodalovchi shakl - bu izlanish jarayonida kelib chiqqan shakl-sxema. Uning tashkiliy asoslari shaxsiy ong ichida tug'ilmasdan ijtimoiy tanlash natijasida paydo bo'ladi.

Ular amaliy ehtiyojlardan kelib chiqadi, muhit ularni o'zlashtirib, ichidan eng zarurlarini tanlab oladi.

Zamonaviy kiyim shakl turlari quyidagicha taqsimlanadi: klassik, bazaviy va modali.

Klassik shakl - bu estetik va utilitar funksiyalar muvozanatga ega shakl. Klassik shakl - bu uzoq vaqt davomida ijtimoiy tanlash natijasida eng barqaror, funksional foydali elementlaridan tuzilgan va rivojlangan shakldir.

Ingliz kostyumi, erkaklar quloqchini, fetr shlyapasi, ayollar "kema"simon shaklli tuflisi va b. klassik shaklga misol bo'ladi (Rasm 15a– b).

Ular o'zgarmaydi deb hisoblamaslik kerak, chunki kostyumni tuzilishi dialektik jarayonidir va o'zgarish doimo ro'y beradi.

Klassik shaklning tuzilish asoslari kelajak avlodlarga normativ bo'ladi va uning asosida tuzilgan buyumlar namunali deb hisoblanadi. Klassik shakl demokratik va baynalminal xususiyatlarga ega.

Klassik shakldagi kostyum barcha yoshdagi va turli gavdadagi odamlarga mos keladi.

Klassik shakldagi kostyumlar modadan eng ratsional va funksional tomonlarni olib zamonaga yarasha o'zgaradi va unga mos bo'ladi.

Bazaviy shakl – bu siyosiy va moddiy turmushning g'oyaviy obrazli tendentsiyasi, odamga estetik ta'sir etadigan shakldir. U muayyan badiiy uslub shakl g'oyasining ifodasidir (Rasm 16 – a – b).

Bazaviy shakl asosida barcha keyingi shakl turlarining dastlabki tarkiblari qo'yilgan. Bu shakl buyumlarning seriyasi asosida olingan.

Bazaviy shakl quyidagi xususiyatlarga ega:

- shakl asosidagi geometrik elementlarning birligi va barqarorlikka asoslangan garmonik bog'langan yaxlitligi;
- uzoq vaqt davomida bo'limlarning deyarli turg'un o'zaro nisbatlari;
- ilmiy, texnikaviy va estetik saviyani ifodalaydigan ma'lum tarkibning mavjudligi;
- ma'lum plastik obraz (gavdani tutish - qomat)ni ifodalashi;
- bazaviy shakl asosida yotgan tizim bo'limlarning o'zaro aloqasini birligi: shaklning geometrik turi, konstruktiv va siluet chiziqlari, bo'limlarning mutanosib va ritmik tuzilishi va simmetrikligi, ranglarning taqsimlanishi, material, faktura va bezak turlari bo'yicha.

Agar uslubga oid bazaviy shakl davrning jiddiy belgilarini o'z elementlarida to'liq to'plasa, u klassik shakl deb hisoblanadi.

Tez o'tar zamon talablariga mos shakl modali deb ataladi.

Shakl elementlari bilan bimalol foydalanish uchun quyidagi qoidalarni bilish shart:

- kostyumning hilma-xil turlarini tuzish asosida bazaviy shakl olinadi, chunki u davrga mos. Ularni sinchiklab o'rganish va kiyim loyihalashda ilmiy izlanishlar o'tkazish kerak. Sanoatni talvasaga solmasdan mantiqiy ravishda yangi shakl va materiallarni vujudga keltirish uchun talablarni tayyorlash shart;

- maksimal utilitar g'oyani ifodalagan shakl estetik shaklgacha o'sishi kerak. Shaklning mukammal emasligini yashiradigan tikuvchining quvliklari bo'lmasligi kerak va yomon konstruksiyadan bezaksimon “yamoqlar” bilan chalg'itmaslik lozim;

- zamonga mos shaklning benihoya plastik ifodalikligi, naqsh va fakturani chuqur ma`noligi, modelni yuksak darajada va aniqlik bilan ijro etilganligi istalgan natijani beradi;

- bazaviy shaklni tushunib yetish darajasi modaga nisbatan munosabatini aniqlaydi. Moda - bu bazaviy shaklning namoyoni, ammo har doim uni ta`riflamaydi.

- barcha modali siluettlarni sanoatda ishlab chiqarish shart emas. Faqat kelajagi bor siluettlarga tikilishi mumkin. Ko`p fasonlarni yaratishga ham zaruriyat yo`q, chunki ular ishni qiyinlashtirib, mahsulotni mukammal emasligiga olib boradi.

Amaliy mashg`ulot №8

MAVZU: Matrisa usulida komplekt yaratish

Ishning maqsadi: Matrisa usuli turlari, elementlari va shaklari. Matrisa modellarini yaratish.

Ishning mazmuni:

1. Matrisa usulini o`rganishi.
2. Matrisa modellarini yaratish.

Kerakli jihozlar:

moda jurnali, lineyka, kalka, qalam, maketlik material, gazeta bo`laklari, rangli qog`oz, akvarel, rangli qalamlar, va oddiy qalam.

Ishni bajarish tartibi

Har bir talabaga ishni bajarish uchun dizaynda badiiy ijod qilishni o`rganadi va ularga asoslanib kostyum shaklini yaratadi.

Matrisa elementlari sifatida old va ort bo`laklarni, lif va yubkani yoki lif va yengni shakllarini tavsiya etish mumkin.

Siluetni yaratish manba sifatida o`simliklarni, tirik jonlarni, badiiy asarlarni tavsiya etish mumkin.

Kostyum kompozitsiyasi siluet orqali badiiy siymo yaratadi. Kostyum jo`shqin xususiyati bilan odamga kuchli ta`sir etadi. Kiyimning sipo, oddiy, boy, jiddiy, dinamik vazmin va b. tomonlarini aks ettirish mumkin. Kostyum zamonni siymoli aks ettirib, ma`lum taassurotlarni tug`diradi.

Kostyum bizning hislarimizga va asosan ko'rinishimizga ta'sir etadi. Real sharoitni bilishga va uni o'rganishga, o'z manfaatimizga ko'ra o'zgartirishga ko'rish qobiliyatimiz imkon beradi.

Shunday qilib, bu ko'rish taassurotlari murakkab psixologik jarayonning, ularning taxlilining, tushunishimizning, ko'rsatish va tushunchani qayta yaratishning dastlabki nuqtasi bo'ladi. Bu murakkab psixologik jarayonni rivojlanishida biz ko'rgan buyumlarga hislarimizning jo'shqin reaksiyasiga duch kelamiz.

Biz idrok etgan shaklning fazoviy nisbatlari, shakl va uning qismlari ma'lum xususiyatga ega. Bu holda paydo bo'lgan hislar kiyimlarning shakllari, ularning chegaralari va boshqa xususiyatlari bo'yicha vazminlik, harakat, yiqilish, uchish va b. taassurotlari bilan bog'liq.

Agar har xil geometrik shakllarning odamga jo'shqin ta'siri solishtirilsa, buni ko'rish mumkin. Ikki uchburchaklarni solishtirilganda quyidagini sezish mumkin: birinchi uchburchakning asosi bo'yiga nisbatan ancha kattaroq bo'lgani uchun ikkinchi, tepaga intilgan uchburchakka nisbatan butunlay boshqa taassurot tug'diradi.

Uch burchaklarning turg'unlik, muvozanat va dinamikliklari mutlaqo har xil. Qanday shakllarni biz tahlil etmaylik, biz ularni har xil tasavvur etamiz. Shakllar ko'rinishi "og'ir" va "engil" dinamik, statik va boshqacha bo'lishi mumkin.

Geometrik shakllarni va ularning qatorida har xil kiyim siluetlarining jo'shqin tomoni bilan odamga ta'sirini kostyum kompozitsiyasini yaratishda inobatga olish lozim.


Siluetning bu xususiyati kiyim nimaga mo'ljallangani, odam qomatining tuzilishiga, yoshiga va jinsiga ko'ra e'tiborga olinadi.

Masalan, kundalik kiyimda asosan haykalsimon oddiy, turg'un, vazmin siluetlar tavsiya etiladi; bashang kiyimlarda esa - dekorativ dinamik, nosimmetrik, murakkab siluetlar qo'llanadi; bolalar kiyimida – oddiy, turg'un siluetlar; yosh ayollar kiyimida har xil siluetlar; qari ayollar kiyimida – sipo, turg'un, oddiy siluetlar; erkaklar kiyimida – asosan to'g'riburchak silueti, ayollar kiyimida barcha siluetlar qo'llanadi.

Komat tuzilishiga ko'ra ham har xil siluetlar tavsiya etiladi. Masalan, figurani balandroq ko'rsatish uchun kiyimning dinamikasi geometrik shakl va uning nisbatlari yordamida erishish mumkin. Shu jumladan figurani siluet yordamida ozg'inroq yoki to'liqroq ko'rsatish mumkin.

Modul odamni tana o'lchamlari va kiyimning optimal o'lchamlari va kiyimning optimal o'lchamlari asosida tanlanadi. Odamga, modul oddiy geometirik shakllardan iborat. Kiyim dizaynida modulning asosiy xossasi – o'ning o'ng va teskarisiga "toza" ishlov beriladi. Ularga qo'llangan materiallari, briktirish usullari, ranglari, geometirik shakllari to'rli varianli buyumlarni yaratishga imkon beradi.

Dizayn buyumlarini ishlab chiqishda modul loyihalash usuli – standartizatsiya sohasida eng samarali faoliyat. Bu usul buyumning tarkibiy elementlarini o'nifikatsmyalashga muxtojlik tug'diradi. Unifikatsiyani asosiy prinsipi – unifikatsiyalashgan elementlardan minimal foydalanganda har xil dizayn buyumlarini hosil qilish mumkin.



Siluet (fr. silhouette, XVII asrda Frantsiya moliya vaziri markiz Et yen de Siluettening yon tomondan qiyofasini soyali proektsiyada kulgili qilib tasvirlangan)

- 1) buyumning soyasiga o'xshash tasviri;
- 2) buyumlarni grafika texnikasi usulida bir tonli yassi tasvirlash. Odatda, siluet tush bilan tasvirlanadi;
- 3) modada kostyumning tashqi shakli, hajmiy shaklining shartli tasviri.

Siluet ma'lum davr mobaynida modada yuz bergan o'zgarishlarni umumiy tarzda aniqlash imkonini beradi.

Siluet – bu tekislikda shaklning eng ifodali proektsiyasi yoki proektsiyalari desa ham bo'ladi. Ko'pincha siluet kiyimning old ko'rinishini aks ettiradi. Agar shunday tasvir nosimmetrik shaklni aniq ifodalamas, siluet kiyimning yon ko'rinishini aks etishi lozim. Shunday holat modaning aktsenti ort bo'lagida bo'lganida yuz beradi.

Siluetlar asosan ikki turda bo'ladi:

- haykalsimon – odam qomati shakllarini ko'rsatadigan va takrorlaydigan;

- dekorativ - odam qomati tabiiy shakllarini ko'rsatmaydigan, yashiradigan va o'zgartiradigan.

Siluetlar quyidagicha taqsimlanadi:

- buyumning gavdaga yopishish darajasiga binoan;
- shaklning geometrik turiga binoan;
- bel chizig'ining holatiga binoan.

Siluetni aniqroq tasavvur etish uchun geometrik shakllarga taqqoslab qaraladi. Geometrik shakl bo'yicha siluetni taqsimlanishi an'anaviy bo'lib, ma'lum davrning modasini plastik imkoniyatlari to'g'risida ta'ssurot beradi.

Shakl turi bo'yicha siluet asosan to'g'riburchak, trapetsiya va oval geometrik shakllari bilan taqqoslanadi. Masalan, asosiy chiziqlari paralell bo'lgan siluet to'g'riburchakni eslatadi; agar chiziqlar ayrilib tursa – trapetsiya bilan taqqoslanadi; agar siluet mayin egri chiziqlardan hosil bo'lsa – uni oval bilan taqqoslanadi.

Geometrik shakllar o'zaro qo'shib, murakkab geometrik shakllarni hosil qilishi mumkin: yarimoval to'g'riburchak yoki trapetsiya bilan, trapetsiya to'g'riburchak yoki trapetsiya bilan va h.k.

Bunday siluetlar asosiy va hosila bo'ladi. Asosiy siluetlar davr yoki mavsum modellari shaklining tuzilishi bilan ifodalanadi. Ularning asosida tipik variantlar va figuraning qomati beriladi. Hosila siluetlarga har xil xususiyatlarga ega bo'lgan bir xil geometrik shakl kiradi. Masalan, to'g'ri cho'zilgan, to'g'ri T-simon, to'g'ri ellipsimon, U-simon va b., odatda, bunday siluetlar tizimadan tizimaga o'tish davrida keng tarqaladi.

Hosila siluetni aniqroq tasavvur etish uchun uni ba'zi buyumlarga (buchkaga, qaychi, tomchi, urchuqqa va b.), o'simliklarga (chuchmomaga, lolaga, bananga va b.), harflarga (X, U, A, D, T va b.) taqqoslanadi (Rasm 23).

Shakl va qomat nisbatiga binoan siluetlar quyidagilarga taqsimlanadi:

- qomatning tabiiy shakllarini ko'rsatadigan siluet - yopishgan deb ataladi;
- qomatga sal yopishgani – nim yopishgan siluet deb ataladi;
- qomatni tabiiy shakllarini ko'rsatmaydigan siluet – erkin siluet deb ataladi.

Shakl qomatning konstruktiv kamarlariga nisbatan asosan kiyim bel chizig'ining holati siluetni tavsiflaydi:

- tabiiy bel chizig'idan pastroqda;
- tabiiy sathida;
- tabiiy bel chizig'idan pastroqda;
- bel chizig'i belgilanmagan.

Bel chizig'idan tashqari kiyim siluetini har xil bo'lishiga qo'shimcha chiziqlarning holati imkon beradi:

- etak chizig'ining tizzaga nisbatan holatiga binoan (kiyim uzunligi): "mikromini" – bo'ksa o'rtasidan yuqoriroq, "mini" – bo'ksani o'rtasigacha, "midi" – tizzadan sal pastroq, "balet uzunligi" – boldirning o'rtasigacha, "maks" – to'piqqacha, "supermaks" – yerda sudralib yuruvchi (shleyfli);

- elka chizig'i holatiga binoan: yelkalarining eni tabiiy va balandligi ko'tarilgan; yelkalar kengaytirilgan va ko'tarilgan; yelkalar balandligi tabiiy holatda, eni esa kengaytirilgan; yelkalar toraytirilgan ("amerika" yoqa o'mizli); yelkalar eni va balandligi tabiiy holatda;
- ko'krak chizig'ini ko'rsatish darajasiga binoan;
- bo'ksa chizig'ini ko'rsatish darajasiga binoan.

Masalan, yeng shakllarining chegaralari yelkadan ko'krak, bel, bo'ksa va hattoki yergacha bo'lishi mumkinligi ko'rsatadi.

Konstruktiv sathlardan chiziqlar o'tqazib, biz bora-bora figurani cheklatamiz va figuraning fazo bilan turli nisbatlarini yaratamiz.

Agar, konstruktiv kamarlardagi nuqtalarni doiradagi nuqtalar bilan birlashtirsak, bizlif, yubka va yeng shaklining chegaralarini yaratishimiz mumkin.

Kostyum loyihalash – bu tadqiqot etib, eskizlar, maketlar va modellarni yaratish, buyumlarni chizmasini va xisobini ishlash, tajriba uchun namunalarni ishlash, belgilangan xususiyatlarga ega yangi kiyim pamunasini yaratish jarayondir.

Dastlabki loyihalash tadqiqotlar va o'xshash modellar taxlili asosida yangi ijodiy kontseptsyada tug'iladi, ular eng avvalo siymoda o'z aksini topadi. Siymo balki eskizda yaratilib, maketda va keyin modelda ifoda etadi yoki bevosita gazlama bilan maketlash jarayonida modelga aylanadi.

Loyihalashni asosiy bosqichlari. Yangi buyumlarni, yangi xossalarni va buyum muhitini yangi funktsiyalarini loyihalashga dizayn faoliyati moslangan.

Loyihalash jarayonida fanning yutuqlari qatorida (sotsiologiya va prognozlashni) siymo-assotsiativ usullari ham o'rganiladi, ular shaklni ma'no va sotsiomadaniyat mazmuni bilan to'ldiradi.

Dizayner faoliyatini loyihalash asosi – ijtimoiy talablarni inobatga olish.

Kostyumni loyihalash asosiy bosqichlari quydagilar: loyihalashdan oldingi vaziyatni tahlil etish; shakllantirish ma'lum turlarini tahlil natijalarini sintez etish; asosiy vazifalarni aniqlash;

- loyiha vazifani yechish uchun optimal variantlarni qidirishda har xil loyihalash usullarni qo'llash.

Loyihalashdan oldingi vaziyatni tahlil etish. Loyihalashni boshlang'ich bosqichida loyihalashdan oldingi tadqiqotlarda buyumni funktsiyalarini, buyumlar yoki sharoit kompleksini, loyihalayotgan buyumni yoki sharoitni tashqi ko'rinishi to'g'risida, o'xshash modellarni borligi bo'yicha ko'rsatkichlar taqqoslanadi.

Loyihalashdan oldingi tahlil ijtimoiy-iqtisodiy, funktsional (buyum bilan foydalanish usullarni tadqiqot etish), funktsional – qiymatiga oidligini (aholining har xil guruhlarni istaklar tarkibini tahlil etish), texnologiya va shaklni (buyum va uni analoglarning tarkibini tahlil etish, kompozitsion, konstruktiv va plastik yechimlarini qidirish) tahlil etishni nazarda tutadi.

Loyihalashdan oldingi tahlilning natijasini shakllantirish muayyan turlarida sintez etish. Dastlabki loyihalash tahlildan so'ng buyumni moddiylashtirish usulda (kompozitsiyasini tarkiblashtirish va uyg'unlashtirish) natijasini sintezlash.

Dizaynda sintez – bu dizaynerlik tahlilda loyihaga oid ma'lumotlarni fikriy tartibga solish jarayonidir va ularni yaxlitlikka biriktirib, loyiha siymosini

yaratishdir. Yagona buyumlarni tarkiblanishi shakllanish deb nomlanadi. Sintez usullari tizimli (kombinator, o'xshashli) yoki o'z-o'zidan kelib chiqadigan intuitiv harakatda bo'lishi mumkin. Sintez jarayonida o'tqazilgan tadqiqotlarning natijasi aniq shakllantirish usullari bilan amalga oshiriladi. Kostyumni shakllantirish kombinator va o'xshash usullari yetarlicha o'rganilgan.

Ijodiy kontseptsiyani ishlab chiqish. Sintez jarayonida ijodiy kontsepsiya tuzish – bu dizayner vazifasini yechish eng muhim qismidir. Dizaynda kontsepsiya – asosiy g'oya, maqsadlarni, vazifalarni va vositalarni ma'naviy yo'nalishi.

Dizayn–loyihaning asosiy vazifalarini aniqlash. Dizayn-loyihani ustidan ish asosiy vazifalarni aniqlashdan boshlanadi. Eng avvalo loyihalayotgan buyumni mo'ljali va funktsiyasi, konstruktiv va texnologik talablari aniqlanadi. Shu bilan birga loyihalashning maqsadi mavjud buyumlarni zamonaviylashtirish ham, ya'ni zamonaviy tashqi ko'rinishni berish (stayling yoki timsol asosida loyihalash), va vazifani printsiptial yangi yechim asosida yoki avval noma'lum texnologik printsip bo'lishi mumkin.

Loyihalash usullari. Loyiha vazifalarni eng optimal variantini qidirish jaryonida dizayner modellash va maketlash usullarni qo'llaydi.

Dizaynda modellash – bu bir butun ob'ektni yoki ob'ektlar tizimining vaziyatini yoki funktsional jarayonini aks etish, tasavvur etish yoki ta'riflab berish jarayondir. Badiiy siymo, loyiha-grafik (eskiz yaratish), retrospektiv, konstruktiv, perspektiv, texnikaviy va komp yuter modellash usullari mavjud.

Loyiha-grafik modellash loyiha g'oyasini yaratishda va aks etishda yordam beradi.

Loyiha-grafik-modellash quyidagilarni ko'zlaydi: grafik shaklini loyiha vazifaning ma'nosiga moslaydi; eskiz loyihani variant qidiruv va tajriba harakati; qo'yilgan vazifani yechish uchun loyiha qidiruvni mantiqiy ketma-ket va tizimli yondashish.

Mavjud loyiha g'oyalarni, texnologiyalarni, korxonalarning iqtisodini, badiiy madaniyat yutuqlarini (me'morchilik, rangtasvir, haykaltaroshlik) inobatga olib, dizayner avval o'z tasavvurida kelajak buyumning eskizini va dastlabki grafik tasvirini yaratadi (qidiruv eskiz, for-eskiz).

Yangi yechimlarni qidirish va variantlarini tanlanish qog'ozda qilinadi. Keyin buyumning tashqi ko'rinishini ta'rifi va amaliy foydalanish qoidasi aniqlanadi. Natijada loyihalayotgan buyumning badiiy-uslubiy va rangli-fakturaviy yechimi (eskiz loyiha) va konstruktiviyasi, modelning proportsiyasi va silueti to'g'risida to'liq ma'lumot beriladi.

Dizaynda eng keng qo'llanadigan usul – retrospektiv modellash, ya'ni timsol va model o'xshashlarni tahliliga asoslangan va ushbu tahlilni asosida yangi loyiha vazifasini tashkil etish. Ammo, bu usul dizaynning asosiy vazifasini bajarishga imkon bermaydi – yangi buyumlarni yaratish emas, balki mavjudlarni takomillashtirishdir.

Dizaynda boshqa modellashtirish usul – konstruktiv modellashdir – bu buyumning funktsiyasini va morfologiyasini (morfologiya – buyumni funktsiyalariga moslashgan) material shaklini o'zgartirish. Konstruktiv modellash

quyidagicha bo'lishi mumkin: korrekativ - buyumning funktsiyasi va shakli takomillashtiriladi; o'timli - buyumga yangi xossalarni berish uchun funktsiya va morfologiya qaytadan tushunib yetiladi (masalan, kiyim dizaynida dekonstruktsiya usuli); proektsion - buyumni funktsiyasi va shakli qaytadan yaratiladi (kiyim yapon dizayneri I.Miyake ijodi).

Dizaynda eng innovatsion usul deb perspektiv modellash yoki loyihaviy prognozlash hisoblanadi, u jamiyatning perspektiv rivojini o'rganish bilan shug'ullanadi va shu timsoliga yetishga imkon beradigan loyihani yaratadi.

Kostyum dizayneri texnolog va konstruktor bilan birgalikda avval eksperimental modelni ishlab chiqadi (sinov uchun namuna), u sinovdan o'tqaziladi va shu jumladan iste'molchilar tomonidan. Keyin kamchiliklari tuzatilgandan so'ng, sinov o'tqazib, sanoat uchun namuna ishlanadi (ishchi loyiha). Keyin ommaviy ishlab chiqarish uchun korxonaga beriladi. Ishchi loyihaga quyidagi hujjatlar kiradi: andazalar, buyumning texnologik ishlov berish haritalari, rangli va fakturaviy yechim uchun haritalar.

Texnikaviy modellash – bu bazaviy model yoki uni grafik tasviri bo'yicha chizmalar va kiyim namunasi ishlash jarayonidir. Ishlab chiqarilgan namuna ommabop ishlab chiqarish korxonalarga shakl va konstruktsiyasi bo'yicha namuna bo'ladi.

Zamonaviy dizaynda komp yuter dizayni muhim o'rinni egallaydi, chunki u yangi texnologiya rivojlanishi nuqtai nazaridan eng perspektiv desa bo'ladi. Komp yuter dizayni mustaqil yo'nalishga asoslanib, ma'lumot bilan vizual ishlashga asoslangan (komp yuter grafikasi, dizayn WEB-sahifalar).

Foto- va video ko'rgazma materiallarga komp yuter ishlov berish, raqamli tarqatuvchilarning vizual ma'lumotlarni keng yoyilgani (maslan, moda fotosuratlar endi retushdan voz kechishdi, endi fotografiya komp yuterda ishlab chiqarilganda nafaqat nuqsonlari yo'qotiladi, balki modelning ko'z, soch va terisini rangini o'zgartirish mumkin). Kelajakda ehtimol bu usul tirik foto- va top-modellardan voz kechishga olib keladi. Komp yuter dizayni xayoliy real va virtual siymolarni yaratishga qaratilgan.

2001 yilda Frantsiyada birinchi virtual fotomodel yeva Solal paydo bo'lgan, u "Madam Figaro" jurnalni muqovasida manekenshchitsa kasbini boshlagan. Uning ishtiroqchilari M.Mians, F.Levi va A.Leyroni bo'lgan. Ular virtual personajlarni yaratishga ixtisoslashgan dunyoda birinchi firmani barpo etishgan.

Shakl dasturlashga va seriyalikka asoslangan komp yuter grafikasi shaklni ko'p har xil turlarini yaratishga, buyumni batafsil modellashga imkon beradi. Uch o'lchamli komp yuter grafikasi mavjud emas ob'ektlarni hajmiy tasvirini yaratishga imkon beradi. Komp yuter dasturlar bilan stilistlar foydalanadi (makiyaj va soch turmagi, kiyim modelini ma'lum shaxs uchun tanlash); to'qimachilar va trikotaj dizaynerlari (naqsh, rang gammasi variantlarini yaratishda); kiyim dizaynerlari (modellar ekizini ishlash); konstruktor va texnologlar. Komp yuter modellashning rivojlanishi ishlab chiqarish yangi texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq, masalan, reklama va poligrafiyada.

Kiyim ishlab chiqarishda ham komp yuter dasturlar keng qo'llanmoqda. Ular yangi modellar joriy etilganda harajatlarni kamayishga, moslashuvini va

harakatchanligini tezlashtirishga imkon beradi: loyihalashni avtomatlashtirgan tizimi, konstruktorlik dasturlari standart va shaxsiy o'lchamlar asosida nafaqat bazaviy asosni tuzishga, unga model xossalarini kiritishga imkon beradi, balki mavjud emas modelning hajmiy tasvirini modellashga ham imkon beradi.

Ammo, komp yuter modellashning istiqboli ajabli bo'lsa ham dizaynda yangi modellarni yaratganda dizaynerni roli kamaymaydi. Komp yuter hech qachon dizaynerning o'rnini bosmaydi, u ijodkorni qo'lida faqat moslama sifatida qoladi (qalam yoki mo'yqalam kabi), loyihalashning ba'zi bosqichlarini tezlashtirib va yengillashtirib. Eng muhimi – komp yuter grafika dizaynning mohiyatini va ma'no qiymatini asoslaydigan yangi g'oyalar va tamoyillarni yarata olmaydi.

Loyihalash usullaridan yana biri – maketlash. Dizaynda maketlash - bu masshtabda yoki asliga mos har xil materiallardan maketlarni ishlash. Maket – loyihalayotgan buyumni materialdan ishlab chiqarishdir. Hajmiy maketlar buyumning fazoviy tarkibi, o'lchamlari va proporsiyalari to'g'risida tasavvur beradi. Kostyum maketini yaratish uchun material sifatida maket materiallari, qog'oz, noto'qima materiallar, tselofan, sun'iy charm, plastelin va b. qo'llanishi mumkin. Zamonaviy kostyum dizaynda asosan loyiha-grafik modellash va maketlash usullari qo'llanadi.

Amaliy mashg'ulot №9

MAVZU: Bosh kiyim modellarini yaratish, aksessuarlar modelini yaratish (sumka, qo'lqop, galstuk va b.)

Ishning maqsadi: Bosh kiyim modellarini yaratish, aksessuarlar modelini yaratish

Ishning mazmuni:

- 1.Xotin qizlar bosh kiyimini o'rganishi.
2. Do`ppi shaklini yaratish.

Kerakli jihozlar:

moda jurnali, lineyka, kalka, qalam, maketlik material, gazeta bo'laklari, rangli qog'oz, akvarel, rngli qalamlar, va oddiy qalam.

Ishni bajarish tartibi

Har bir talabaga ishni bajarish uchun dizaynda badiiy ijod qilishni o'rganadi va ularga asoslanib kostyum shaklini yaratadi.

O'zbek xotin - qizlari kiyim-kechaklaridagi o'ziga xoslik ayniksa ularning bot kiyimlarida yakkol ko'zga tashlangan. Boga kiyim deganda, eng avvalo, do'ppi ko'zga tutiladi. Ammo xotin - qizlarning hammasi ham do'ppi kiyavermagan. Do'ppini asosan turmushga chikmagan yosh qizlar, ayrim hollardagi yosh kelin va xotinlar kiyishgan. Fargona vodiysi, Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi joylarda do'ppi kiyish an'anaviy hisoblangan. Bu yasoylarda xotin-qizlar do'ppilari turlicha nomlangan va turlicha nusxalarda tiqilgan. SHaxrisabz va Kitob do'ppilari juda mashxur bo'lgan. Xotin - qizlar do'ppilari tepa, kizak, jiyak kabi qismlardan iborat bo'lib, ularaloxida - aloxida tiqilib, so'ng bir - birlari bilan kushib yaxlit holatga keltiriladi. Ayrim do'ppilar to'rtburchak, boshqalar dumalok shaklida buladi. Sanami, iroki, gilam, nusxa, nozik do'ppi kabi do'ppilar respublikamizning hamma joylarida kiyilgan.

Qishloq yayuylarida tiqilgan do'ppilar kimga muljallangani bilan bir - biridan farq qilgan va turli nomlar bilan yuritilgan. CHunonchi, kiz do'ppisi, kelin do'ppisi kabi. Bunday do'ppilar dumalok, popukli bo'lib, usti qizil yoki tuk - qizil matodan tiqilgan. Jiyakning pastki tomonidan zich qilib ok sadaf tugmalar kadalgan.

Ko'proq o'rta va katta yoshdagi ayollar kiyimining boshga kiyiladigan yayuyi dumalok, orkasiga tushib turadigan soch kopi bo'lgan. Ayrim yasoylarda bu bosh kiyimiga ozrik paxta ham solingan.

Qizlar kiyadigan bosh kiyimlardan yana biri "kasava" deb atalib, u kattik karton yoki bir necha xil matodan chambarak shaklida tayyorlangan va o'rta qismi ochiq koldirilgan. Xotin-qizlarning "Lachak" degan bosh kiyimning orka tomoni kishining beliga tushgan, old qismi iyakka takalib turgan. Kishining yuz - ko'zi uchun maxsus teshigi bo'lgan.

Xotin - qizlarning harakterli bosh kiyimlaridan yana biri bosh yoki salla deb ataladi. Mazkur bosh kiyimni odatda bolali ayollar kiyishgan. Ayollar boshlariga avval boshlariga yarim do'ppi shaklida kiygichni kiyib, uning ustidan besh - etti metrlik salla o'rashgan. Xuddi shu qismi bosh deb atalib, uning ustidan esa o'z

uylarida ettitadan tukkiztagacha, tukkiztadan un birtagacha turli rangdagi va nomdagi matolardan tayyorlangan uch burchakli yoki to'rt burchakli kiyik ro'mollarni

hammasining rangi aniq kurinadigan qilib o'rashgan.

Bu bosh kiyimlarning eng katta va eng balandi chambarshoxbosh deb atalgan.

Bosh yoki salla orasi, ustki qismi ochiq koldirilgan, unga nina, kalit, pul, ro'molcha, gugurt, kurut, tuxum kabi narsalar solingan.

O'tmishda xotin - qizlar turli tuman ro'mollar o'rashgan. Ular qanday matodan qilinganligiga qarab turlicha atalgan. Xususan, dudok ro'mol, ip ro'mol, tol ro'mol, doka ro'mol, mikol doka ro'mol, g'ijim ro'mol qabilar.

Xogin-qizlarda kundalik o'rash uchun durra, durracha, peshonaband, manglaycha, loki kabi boshqa uraladigan ro'molar ham bo'lgan.

Kariyalar aytishicha, keksalar boshlaridan durra tushib ketmasligi uchun uning ustidan buklab bog'laydigan ro'mol loki deb atalgan.

Bu Buxoro va Samarqand viloyat xotin-qizlari orasida peshonaband nomi bilan, Toshkentda ilgari loki deb, keyinchalik esa peshonaband deb yuritiladi.

Qadimiy a'anaga ko'ra, tuy kuni kelinlar boshiga ok ipakli matodan tiqilgan kadpo nomli katta yopinchik ro'mol solingan. Buning ham hajmi bo'i ikki metr, eniga bir metr bo'lgan. Buni kelinlar bolalik bulgunlaricha yopinib yurigagan.

Ustki va bot kiyimlar, to'ningdek yopinchiklar kabi xotin qizlarning soch urishlari, sochni parvarish qilishlari ham ularning ushiga, oilaviy axvoliga qarab o'zgarib borgan. Avvalo shuni aytish kerakki, sochni o'stirish, uni parvarishlar, maydalab yoki ikkita qilib urish o'zbek xotin-qizlarining qadimiy an'analaridan sanaladi.